



PUBLITSISTIK USLUB SHAKLLANISHIDAGI LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR

Masharipov Mansurbek Masharipovich,

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali direktor o'rinbosari,

dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: mansurbekmasharipov@urgu.uz

<https://orcid.org/0009-0001-6582-6239>

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1565>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 10

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ekstalingvistik omillar, lisoniy me'yor, yagona turkiy til, purizm, jargon, ekspressivlik, struktur-grammatik xususiyatlar, tayanch dialekt, singarmonazim, ijtimoiy-siyosiy terminologiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada XIX asr oxiri XX boshlarida o'zbek adabiy tilida publitsistik uslubning shakllanishidagi ijtimoiy zaruriyat, lisoniy va nolisoniy omillar tavsiflangan. Davr adabiy tilida publitsistik uslub me'yorlarining shakllanishi va takomilida jadid ma'rifatparvarlari yaratgan publitsistik asarlarning ahamiyati, mazkur davrdagi matbuot nashrlarining o'rni, uslub tilining asosiy lisoniy xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada publitsistik uslubning shakllanish jarayonida matbuot tili va jadid ziyolilarining lingvistik qarashlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalasi ham yoritiladi. Tadqiqot natijasida publitsistik nutqning shakllanishida til me'yorlarining barqarorlashuvi, uslubiy variantlarning kengayishi hamda milliy adabiy tilning funksional imkoniyatlari ortib borishi asosiy omillardan biri bo'lganligi aniqlangan. Bundan tashqari, maqolada publitsistik matnlarning kommunikativ maqsadiga ko'ra axborot berish, ta'sir etish va targ'ibot funksiyalarining uyg'unlashuvi til birliklarining tanlanishi va qo'llanishida hal qiluvchi rol o'ynaganini ko'rsatib beriladi. Natijada o'zbek adabiy tilida publitsistik uslubning mustaqil funksional tizim sifatida shakllanish jarayoni ilmiy asosda yoritiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 10

KEYWORDS

Extralinguistic factors, linguistic norm, unified Turkic language, purism, jargon, expressiveness, structural and grammatical features, base dialect, vowel harmony, socio-political terminology

ANNOTATION

The article describes the social necessity as well as the linguistic and extralinguistic factors that influenced the formation of the journalistic style in the Uzbek literary language in the late 19th and early 20th centuries. It provides a scholarly analysis of the role of journalistic works created by Jadid enlighteners in the development and refinement of journalistic norms in the literary language of that period. The article also highlights the significance of the press publications of the time and outlines the main linguistic features of the style. In addition, the article also examines the interrelation between the language of the press and the linguistic views of Jadid intellectuals in the formation of the journalistic style. The study reveals that the stabilization of linguistic norms, the expansion of stylistic variation, and the growing functional capacity of the Uzbek literary language were among the key factors in this process. Furthermore, it is demonstrated that the communicative purposes of journalistic texts—namely informing, influencing, and promoting ideas—played a decisive role in the selection and use of linguistic units. As a result, the formation of journalistic style in the Uzbek literary language is analyzed as an independent functional system based on scientific principles.

Kirish. Jadidlar o'zlarining turfa janrlarga boy asarlari bilan milliy adabiy tilimiz rivojiga ham sezilarli hissa qo'shdilar. Darhaqiqat, O'rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinishi va buning natijasidagi mamlakat hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar xalqning madaniy hayoti, qolaversa, o'zbek milliy tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu davrda milliy adabiyotimiz dramaturgiya va publitsistika kabi yangi janrlarning paydo bo'lishi bilan, shubhasiz, taraqqiy etdi va bu holatni o'zbek adabiyotining alohida yutug'i sifatida e'tirof etish mumkin.

Shulardan biri o'zbek milliy publitsistikasining shakllanishi va rivojlanishi esa Turkiston jadidlarining milliy-adabiy sohada qo'lga kiritgan eng katta natijalaridan biri edi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy muammolarga barham berish, xalqning ma'naviy yuksalishi, ilm-ma'rifat masalalarini targ'ib etish borasida xalq bilan muloqotning eng samarali yo'li publitsistika edi. Darhaqiqat, publitsistika har qanday jamiyatning xilma-xil siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy talablarini omma oldiga olib chiqishda, mavjud muammolarga yechim topishda samarali janr turi hisoblanadi. XX asr boshlarida aynan shu maqsadda, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy jarayondagi voqealar bilan xalqni muntazam tanishtirib borish maqsadida matbuotga ijtimoiy ehtiyoj seziladi. 1869-yildan boshlab O'rta Osiyoning turli shaharlarida litografiya va bosmaxonalar tashkil qilinadi. 1870-yil 28-apreldan Toshkent shahrida Turkiston general gubernatorining maxsus buyrug'i bilan o'zbek tilida "Turkiston viloyatining gazetisi" nomli rasmiy hukumat gazetasi chiqq boshlaydi. Bu gazeta ruscha "Turkestanskiy vedomosti" gazetasining o'zbekcha vaianti bo'lib, unga ilova tarzida chiqariladi. Nazar tashlansa, gazeta Chor hukumatining gazetasi bo'lganligi uchun, dastlab unda asosan gubernatorlikning O'rta Osiyoda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatiga doir ma'lumotlar berib borilganligi, 1980-yildan keyingi sonlarida esa ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyotga oid maqolalarning chop etilib borilganligi kuzatiladi. Madaniy-ma'rifiy xarakterdagi maqolalarning salmog'ida Sattorxon, Ashurali Zohiriy, Mirmuhsin, Behbudiy, Avloniy, Hoji Muin kabi Turkiston ma'rifatparvar ziyolilarining munosib hissasi borligi kuzatiladi. Mazkur gazetaning ta'sis

etilishi O'rta Osiyoda matbuotchilik harakatining boshlanishi edi. Keyinchalik esa "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon", "Oyina", "Inqilob", "Maorif va o'qitg'uvchi", "Uchqun", "Tayoq", "Mashrab", "Sho'ro" kabi gazeta va jurnallarning ta'sis etilishi o'zbek publitsistikasi rivojida muhim rol o'ynadi. Buning natijasi o'zbek adabiyotidagi publitsistik janrlarning shakllanishi va takomili o'zbek milliy adabiy tilida targ'ibot-tashviqot uslubi deb nom olgan publitsistik nutq va uslub tilining ta'min etilishiga turtki bo'ldi. Bu uslubning lingvistik va ekstralingvistik vazifasi axborot yetkazish, fikrni ta'sirchan tarzda ifodalashdan iborat. Uslub tilining barcha lisoniy xususiyat va imkoniyatlarini ushbu davr matbuot nashrlari misolida tadqiq etish mumkin. Biz bu o'rinda dastlab uslub tilining shakllanishidagi lingvistik omil va zaruriyatni izohlashga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili. Davr adabiy tili holati publitsistik uslub tilining shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgan edi. O'zbek adabiyoti tarixida ma'rifatparvarlik adabiyotidan keyingi bosqich sifatida maydonga kelgan jadid adabiyoti vakillari xalqni ma'rifatlilik qilib tarbiyalash, jamiyatda yangilanishlarga erishish, vatan va millatni taraqqiyot yo'lga olib chiqish g'oyalarini targ'ib qilishda, bu masalada xalq bilan erkin muloqotga kirishishda qulay va samarali bo'lgan vositalarni izladilar. Bu esa, o'z navbatida, ma'rifatchilik va jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni aks ettirishga qaratilgan jadid adabiyotida an'anada bo'lgan adabiy tur va janrlarning yangilanishi uchun zamin hozirladi. Dramaturgiya va publitsistikaning shakllanishini jadid davri adabiyotining mahsuli sifatida qayd etish lozim bo'ladi. Aynan publitsistikaning qaror topishi bilan o'zbek adabiy tilida publitsistik nutq va uslub tilining shakllanishi uchun ijtimoiy ehtiyoj yuzaga keldi. Bu uslub tilining shakllanishi uchun yuzaga kelgan ijtimoiy ehtiyoj, zaruriyat va lisoniy omillarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'rta Osiyo istilo qilingach, Chor Rossiyasi hukumati xalqni jamiyatdagi voqelikdan muntazam xabardor qilib turish, xilma-xil ijtimoiy-siyosiy talablarini omma oldiga olib chiqish va mavjud muammolarga yechim topish maqsadida matbuotni joriy

qilishadi. Toshkent shahrida 1870-yil 28-apreldan Turkiston general gubernatorining maxsus buyrug'i bilan o'zbek tilida "Turkiston viloyatining gazetasi" nomi ostida dastlabki matbuot nashri ta'sis etiladi. 1905-yildan keyin esa Turkistonda xalq orasida ommaviy-siyosiy fikrlarni keng targ'ib qilishning yanada faollashishi ortida "O'rta Osiyoning umr guzurligi", "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat" kabi gazeta va jurnallar ham ta'sis etiladi. Demak, Turkistonda dastlabki matbuot nashrlarining joriy etilishiga davr adabiy tilida publitsistik uslub tilining shakllanishi uchun bo'lgan birinchi ijtimoiy ehtiyoj sifatida aytishimiz mumkin.

Davr adabiy tilidagi eski mumtoz adabiy tili an'alaridan xalq jonli so'zlashuv tili tomon yaqinlashish tendensiyasining rivojlanishi ham matbuot uslubining shakllanishida asosiy va yetakchi rol uynaydi. Adabiy tilning xalq jonli tiliga yaqinlashishida dastlab Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi demokrat shoirlar ijodi ahamiyat kasb etgan bo'lsa, bu lisoniy jarayon keyinchalik Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Abdulla Qodiy kabi jadidlarning badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarida ham davom ettirildi. Adabiy tilni demokratlashtirish, xalq jonli tiliga yaqinlashtirish harakatlarining natijasi publitsistik uslub tilining leksik-morfologik, sintaktik me'yorlarining shakllanishida bosh omil bo'ldi.

Mazkur davrda rus va qardosh xalqlar matbuot nashrlari, noshirlari va davr ziyolilarining madaniy-ma'rifiy sohadagi aloqalarining o'zbek publitsistik uslubi normalari sayqallanishiga ta'siri bo'lgan deyishimiz mumkin. O'zbek adabiyoti tarixiga oid ilmiy manbalarda bir qator o'zbek adiblari Ozarbayjonda nashr qilinadigan ba'zi jurnallarni tizimli ravishda o'qib borganligi haqida ma'lumotlar bor: "Bokuda chiqadigan "Mulla Nasriddin", "Dabiston" kabi jurnallarni O'rta Osiyodagi ko'pgina ilg'or ziyolilar qatori yosh Hamza, Ayniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Ajziy, Avloniy va boshqalar ham tizimli o'qib turganlar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Ajziylar "Mulla Nasriddin" jurnalining redaktori, "Ozarbayjon Gogoli" deb nom olgan mashhur satirik Jalil Muhammadqulizoda bilan shaxsiy muloqotda bo'lganlar" [1, 324].

Shuni ta'kidlash o'rinli, Turkistonda ta'sis etilgan birinchi nashr "Turkiston viloyatining gazetasi" 1885 yildan ikki tilda, ya'ni rus va o'zbek tillarida paralel chop etilib, A.S.Pushkin, N.V.Gogol, I.S.Turgenev, L.N.Tolstoy kabi rus yozuvchilarining asarlari ilk bor o'zbek tilida mazkur gazeta sahifalarida berib borilgan. Bu esa o'zbekcha tarjimaning asliyatga muvofiq tarzda berilishi asosida dastlabki bosqichda rus va qardosh tillar publitsistikasining o'zbek matbuoti uslubi tilining shakllanishidagi ta'sirini ko'rsata oladi. Keyinchalik "Tarjumon", "Ulfat", "Sho'ro" kabi qardosh xalqlar matbuot nashrlari ham jadid ma'rifatparvarlari publitsistik ijodining shakllanishida muhim rol o'ynaganligi tadqiqotlarda aks etgan.

Adabiy tilning boshqa vazifaviy uslublari qatorida publitsistik uslub ham tilning leksik, grammatik va fonetik tizimlarga xos barcha vositalarning ma'lum aloqa-munosabat maqsadiga ko'ra uyushishi asosida yuzaga keladi. Ana shu maqsad, g'oya talabidan kelib chiqqan holda til birliklari tanlanadi. Bunda aytish mumkinki, davr adabiy tilida publitsistik uslub tilining shakllanishi va takomili uslub janrlari ko'lamining ortishi, mavzu tematikasining kengayishi bilan bog'liqligi kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Turkistondagi ilk nashr hisoblangan "Turkiston viloyatining gazetasi" general gubernatorlikning rasmiy organi bo'lgani uchun, unda dastlab rasmiy hujjatlar, savdo-sotiqqa, qisman xalqaro voqelikka oid materiallarga bosilgan. Keyinchalik ma'lumot va axborotlarning mavzu tematikasi kengayib ilm-fan, madaniyat, san'at va madaniyatga doir maqolalar salmog'ining ortib borishi, oddiy axborot tarzidagi ma'lumotlarning maqola, sharh, izoh, murojaat, tabrik, bayonot, lavha, ocherk, felyeton kabi publitsistik janrlar tomon o'sish evolyutsiyasi publitsistik uslubdagi informativlik (axborot berish), targ'ibot, tashviqot, tarbiyaviylik, tashkilotchilik, ommaviylik, obrazlilik, ekspressivlik, emotsionallik, aniqlik, ixchamlik, uslubiy muvofiqlik kabi mezonlarning shakllanishi uchun turki bo'ldi.

Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohadagi har qanday yangilik an'anaviy zamini ta'siridan ayro tarzda yuzaga kelmaganidek, o'zbek publitsistik uslubi janrlari, uning lisoniy asosi ham bundan mustasno emas. XX asr boshlaridagi hajviy publitsistikaning shakllanish, rivojlanish bosqichini o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti bilan bog'lash o'rinli bo'ladi. O'zbek ziyolilarining oldingi safida turgan Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy, Sattorxon, Nodim Namanganiylar o'zlarining ilg'or demokratik-ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishda matbuotdan ham foydalanishgan. Jumladan, "Turkiston viloyatining gazetasi"da Furqatning "Gimnaziya", "Ilm xosiyati", "Vistavka xususida" kabi she'rleri, "Suvorov" dostoni hamda jaholat va ilmsizlikni qoralovchi bir necha tanqidiy maqolalari chop etiladi. Furqatning "Bir huquqandlik tolibul-ilmning xati", "Odamzod ko'nglining avsoti", "Ba'zi madrasalar xususida" kabi maqolalarida zo'ravonlik, jaholat va nodonlik kabi ijtimoiy illatlar tanqidiy-hajviy vositalar orqali tasvirlanadi. Bu maqolalarni o'z

xususiyati bilan fel'yetonning kichik janriga o'xshatish mumkin. Professor G'ulom Karimov ta'kidlaganidek, "Furqat Sharq poeziyasining ajayib namunalarini yaratgan lirik shoir, ilm-madaniyatni, taraqqiyotni targ'ib qilgan ma'rifatparvar arbob, memoir asarlar yozib qoldirgan prozaik, nihoyat, olim, tarjimon va birinchi publitsist hisoblanadi" [2, 183].

Demak, XX asr boshlaridagi o'zbek hajviy publitsistikasining vujudga kelishida yozma hajviy adabiyot, xususan demokratik satiraning roli katta bo'lgan. Ya'ni o'zbek demokratik satirasi xajviy publitsistika va uning uslubiy tamoyillari ta'min etilishida asos vazifasini bajargan.

XX asr boshlaridagi ijtimoiy, siyosiy, adabiy va madaniy hayotdagi yangilanishlar, sotsial hayotdagi o'zgarishlar bevosita tilning sohalariga, xususan, terminologiya sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Maktab va maorif sohasidagi yangicha islohotlar, xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarining rivojlanishi, fan va sanoat sohalaridagi ijobiy siljishlar o'zbek tili lug'at fondida yangi so'z va terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Shu asosda ijtimoiy-siyosiy terminologik tizimning shakllanishi ijtimoiy-siyosiy publitsistika uchun manba vazifasini o'tadi deyish mumkin.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda publitsistik uslubning shakllanish jarayonini yoritishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Xususan, tarixiy-qiyosiy metod asosida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining holati hamda publitsistik matnlarning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Deskriptiv (tasviriy) metod yordamida davr matbuoti materiallarida uchraydigan lisoniy birliklar — leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlar tizimli ravishda tavsiflandi.

Shuningdek, lingvostilistik tahlil usuli orqali publitsistik uslubga xos ekspressivlik, emotsionallik va ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi til vositalari aniqlanib, ularning funksional vazifalari izohlandi. Ekstralingvistik omillarni yoritishda esa ijtimoiy-tarixiy yondashuv qo'llanilib, jadidchilik harakati, matbuot taraqqiyoti va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning til rivojiga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqot manbai sifatida davr matbuot nashrlari, jadid publitsistikasi namunalari hamda ilmiy-adabiy manbalar tahlilga jalb qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zbek adabiy tilida publitsistik uslubning shakllanishi murakkab va ko'p omilli jarayon sifatida yuzaga kelgan bo'lib, unda lisoniy hamda nolisoniy omillar o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Eng avvalo, jamiyatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, xususan, matbuotning paydo bo'lishi va rivojlanishi publitsistik uslub uchun zarur kommunikativ maydonni yaratdi. Natijada axborot yetkazish, targ'ibot-tashviqot olib borish, jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qiluvchi yangi nutq shakli — publitsistik uslub qaror topdi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, mazkur davr publitsistik matnlarida adabiy tilning demokratlashuvi yaqqol kuzatiladi. Ya'ni, mumtoz yozma an'anaga xos murakkab, kitobiy til birliklari asta-sekin xalq jonli so'zlashuv tiliga xos sodd va tushunarli ifodalar bilan almashib bordi. Bu jarayon publitsistik uslubning asosiy belgilaridan biri — ommaboplik va tushunarlilikni ta'minlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, til birliklarining tanlanishida kommunikativ maqsad yetakchi omilga aylangani, ya'ni fikrni tez, aniq va ta'sirchan yetkazish ustuvor ahamiyat kasb etgani kuzatildi.

Natijalardan yana biri shuki, publitsistik uslubning leksik tarkibi sezilarli darajada boyidi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangilanishlar natijasida tilga ko'plab yangi terminlar kirib keldi va ular matbuot orqali faol iste'molga tatbiq etildi. Ayniqsa, siyosat, maorif, madaniyat, iqtisod sohalarga oid terminologik qatlam shakllanib, publitsistik matnlarning mazmuniy aniqligi va dolzarbligini oshirdi. Shu bilan birga, arabcha va forscha o'zlashmalarni saqlab qolish yoki ularni milliy til qoidalariga moslashtirish masalasi ham muhim lingvistik muammo sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot davomida publitsistik uslubning grammatik xususiyatlari ham shakllanib borganligi aniqlandi. Xususan, sodd va qo'shma gaplarning faol qo'llanishi, murojaat, undov va ritorik savollar orqali fikrning ta'sirchan ifodalanishi, buyruq-istak maylining targ'ibot xarakteridagi matnlarda keng ishlatilishi uslubning sintaktik belgilarini yuzaga keltirdi. Bu esa publitsistik nutqning nafaqat informativ, balki ta'sir o'tkazuvchi vosita sifatida ham shakllanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, natijalar publitsistik janrlar tizimining kengayib borganini bilan ham karakterlanadi. Dastlab oddiy axborot berish bilan cheklangan matnlar keyinchalik maqola, ocherk, felyeton, murojaat, sharh kabi janrlar ko'rinishida rivojlanib, har bir janr o'ziga xos uslubiy va til xususiyatlarini shakllantirdi. Ayniqsa, hajviy publitsistika janrlarida ekspressivlik, kinoya, istehzo kabi stilistik vositalarning faollashuvi kuzatildi.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, jadid ma'rifatparvarlarining publitsistik faoliyati ushbu uslubning shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lgan. Ular tilni soddalashtirish, xalqchil qilish, ayni paytda ilmiy va

adabiy talablar asosida me'yorlashtirishga intilganlar. Natijada publitsistik uslub adabiy tilning boshqa funksional uslublari bilan o'zaro aloqada rivojlanib, mustaqil va barqaror uslubiy tizimga aylangan.

Umuman, olib borilgan tahlillar publitsistik uslubning shakllanishi til tizimidagi ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bir qatorda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar, madaniy-ma'rifiy harakatlar va matbuot taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelganligini tasdiqlaydi.

Muhokama. O'tgan asrning 20-30-yillarida shakllanayotgan yangi o'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilash, uning ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini ishlab chiqish, publitsistik uslub tilining shakllanishiga doir masalalarda Mahmudxo'ja Behbudiy ilgari surgan qarashlar M.Masharipovning [1, 126] tadqiqotida o'z aksini topdi. Muallif adibning fikr yuritilayotgan muammo yuzasidan matbuot nashrlaridagi maqolalarida tutgan nuqtayi nazarini quyidagicha umumlashtiradi: 1) Mahmudxo'ja Behbudiy dastlab panturkizm ta'sirida bo'lgan bo'lsa-da, yangi o'zbek adabiy tilini mazkur davrda zamonaviy rivojlanish bosqichida bo'lgan usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillari asosida emas, balki asrlar davomida shakllanib, o'z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo'lgan xalq jonli tili asosida yaratish tarafdori bo'ladi; 2) biroq o'z fikrlarida jonli xalq tili adabiy tildan farqlanishi kerakligini, "fanniy, adab, ta'lim, tarbiya va diniy kitoblarni sof avom tilida yozmoq mumkin emasligini", "mavjud ilm-u fan va tarixni bilmok va alardan foydalanmoq uchun avom tilidan farqli" adabiy tilni yaratish zarurligini ta'kidlaydi; 3) u adabiy tilning tamoyillarini belgilashga harakat qilib, birinchi galdagi vazifani adabiy tilning leksik fondini o'zlashmalardan "tozalash"da deb biladi. Uningcha, "muqobil va murodifi xalq tilidan va adabiyotidan yo'qolgan" arabcha, forscha so'zlarni saqlash kerak. Masalan, *dushanba, seshanba, maktab, madrasa, kitob, qasd, tark, insof* kabi so'zlarni tildan chiqarib tashlashga hojat yo'q; 4) muqobillariga qaraganda arabcha, forscha so'zlar qulay bo'lsa, ularni saqlab qolish kerak, ya'ni arabcha, forscha so'zlarning o'zbekchadagi muqobillari o'zlari qadar ma'lum bo'lmasa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 324.
2. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1966. – 183 b.
3. Masharipov M. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining leksik xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok... diss. – Guliston, 2023. – 126 b.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2-jildlik. 2-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.32.

Chunonchi, "vohidi qiyosiy ma'nosini solishtirish o'lchovi ado etmaydur. Bo'lsa-bo'lmasa, bu bir istiloh bo'lib, "solishtirish o'lchovi, ya'ni vohidi qiyosiy" deyilmaguncha fahmlanmas". 5) o'zbek tiliga "muqim o'rnamashgon" arabcha, forscha o'zlashmalarni o'zbek tilining leksik, grammatik qoidalariga moslashtirish lozim. Masalan, "ulum, funun, ulamo, quzzot demoq yerinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar deb yozingiz"; 6) ta'limiy adabiyotlarni sheva va lahjalar tilida emas, garchi, arabcha, forscha o'zlashmalar ta'sirida bo'lsa-da, adabiy tilda yaratish kerakligiga urg'u beradi; 7) Behbudiy o'z kuzatishlari asosida o'zbek tili arabcha va forscha so'zlardan butunlay qutula olmasligini tushunadi va "yolg'uz turkcha so'ylashmak va yozmoq abadan mumkin emas, baqadri imkon arabiy, forsiyini oz yozayluk" [4, 32] degan xulosaga keladi.

Xulosa. Umuman olganda, yuqorida izohlangan lisoniy va nolisoniy omillar XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari o'zbek adabiy tilida publitsistik uslub tilining shakllanishi va takomida muhim rol o'ynadi. Bu uslub badiiy uslubdan farq qiluvchi mustaqil lingvistik hodisa sifatida sof adabiy til, jonli so'zlashuv tili, rasmiy uslub va rasmiy hujjatlar tiliga xos xususiyatlarni uyg'unlashtirgan holda adabiy tilning uslubiy ko'rinishlari safini kengaytirdi.

Publitsistik uslubga xos bo'lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o'quvchini bunga ishonitirish, his-tuyg'ulariga ta'sir etish, tashviqot-targ'ibot hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning hissiy-ta'siriy vositalaridan o'rinni foydalanish kabi lisoniy me'yorlarning qaror topishida davr ziyolilari hisoblangan jadidlarning publitsistik faoliyati ahamiyatli sanaladi.

Mazkur uslubga xos bo'lgan maqola, xabar, xat, sharh, taqriz, ocherk, sayohatnoma, xajviya, fel'yeton kabi janrlar tilining lisoniy xususiyatlarini jadid ma'rifatparlari ijodi misolida o'rganish o'zbek adabiy tilining rivojlanishi, adabiy normalarining turg'unlashuviga xos muayyan qonuniyatlarni belgilashga xizmat qiladi.

5. Nilufar, J. (2022). TIL MILLATNING JON BULOG 'I. World of Philology, 1(2), 61-65.
6. Коноваленко В.В., Коноваленко С.В. Экспресс-обследование фонематического слуха и К 64 готовности к звуковому анализу у детей дошкольного возраста. Пособие для логопедов. - М.: "Тном-Пресс", 2000. – 16 с., цветная вставка.
7. Ерошева, О. В. Арт-терапия как здоровьесберегающая технология в ДОО / Молодой ученый. – 2023.